

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**RO'YXATGA OLINDI**

№ vm – 343 - 5A3406015 –

2.03

«1» Iyul **2003** y

**«TASDIQLANDI»**

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi

---

«8» Iyul **2003** y

**DAVLAT INVESTITSIYA DATTURI VA UNI  
SHAKLLANTIRISH  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 —«Biznes va boshqaruv»  
ta'lim sohasidagi 5A3406015 — «Davlat investorlari»  
magistratura mutaxassisligi uchun**

**Toshkent-2003**

**Tuzuvchi:** dots. Karimov N. G'.

**Taqrizchilar:** dots. Toshmurotov Sh.  
M.,  
dots. Akramova G. A.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri davlat investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va unda mamlakatimizda investitsiyalarni strategii mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirish, ularni moliyalashtirish va kreditlashtirish mexanizmini shakllantirishdan iborat. Davlat investitsiya siyosatining asosiy negizi ham investitsiya dasturining mohiyati va uni amalga tatbiq etishdan kelib chiqadi. «Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanining bosh maqsadi ham magistrantlarga bugungi kundagi respublikamiz investitsiya dasturining mohiyati, maqsadi, yo'nalishi, uni shakllantirish mexanizmini o'rgatishdan iboratdir. Bu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi ham magistrantlarga O'zbekiston investitsiya dasturining iqtisodiy mazmuni, tarkibi, uni shakllantirish jarayoni, davlat investitsiyalarini moliyalashtirish va kreditlashtirish tartibini, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgandir.

Одним из основных направлений государственной координации инвестиционной деятельности является разработка инвестиционных программ. Инвестиции должны направляться на выпуск стратегически важных продукции, на формирование механизма финансирования и кредитования. Сущность и значение государственной инвестиционной политики вытекает из реализации государственных инвестиционных программ. Основной целью дисциплины \_ «Государственная инвестиционная программа и ее формирование» является изучение магистрами сущности, цели, направлений и механизмов формирования государственной инвестиционной программы. Исходя из вышеуказанных целей, основными задачами дисциплины является: обучать магистрантов экономической сущности инвестиционной политики Узбекистана, содержанию инвестиционных программ, циклу формирования инвестиционных программ, порядку финансирования и кредитования государственных инвестиций, организации координации инвестиционной деятельности.

One of the main directions of state coordination's investment activity is the development of the investment programs. Investments should be directed of strategically important goods both formation of the financing and crediting mechanisms. The essence and meaning of state investment policies follows from realization of the state investment programs. By the basic purpose of discipline «The State investment programs and their formation» is to teach magistrates of essence, purpose, directions and mechanism of formation of the state investment program. Proceeding from above-given curriculum is to train masters of economic essence of investment policies of Uzbekistan, contents of the investment programs, cycle of formation of the investment programs, order of financing and crediting of the state investments, organization of investment activity.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel, 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul, 37-sonli majlis bayoni).

## 1. SO'Z BOSHI

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri davlat investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va investitsiyalarni strategii mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirish, ularni moliyalashtirish va kredit lashtirish mexanizmini shakllantirishdan iborat, Davlat investitsiya siyosatining asosiy negizi ham investitsiya dasturining mohiyati va uni amalga tatbiq etishdan kelib chiqadi.

### **O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi**

«Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanini o'qitishning bosh maqsadi magistrantlarga respublikamizning bugungi kundagi investitsiya dasturining mohiyati, maqsadi, yo'nalishi, uni shakllantirish mexanizmini o'rgatishdan iboratdir. Bu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi O'zbekistan investitsiya dasturining iqtisodiy mazmuni, tarkibini, investitsiya dasturini shakllantirish jarayonini, davlat investitsiyalarini moliyalashtirish va kreditlashtirish tartibini, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishni tashkil etishni o'rgatish hisoblanadi.

Mazkur fan "Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti», "Investitsion tahlil", "Investitsiya lo'ihalari tahlili va texnik ekspertizasi", "Davlat investitsiya siyosati, investitsiya loyihalari monitoringi», "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi", "Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob kitoblar» kabi fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, magistrantlardan ushbu fanlarni ham mukammal o'zlashtirishlari talab etiladi.

### **Fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar**

Ushbu fanni o'rganish jarayonida magistrantlar tegishli bilimga, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda investitsiya va xorijiy investitsiya sohasiga oid qonunchilik, investitsiya dasturlarini tayyorlash tartibi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ulardagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim.

«Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanini o'zlashtirish uchun magistrantlar quyidagilarni bilishlari zarur:

- davlat investitsiya dasturining mazmuni, maqsadi;
- O'zbekistondagi investitsiya dasturini shakllantirish jarayoni;
- davlat investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ketlarni kreditlash va moliyalashtirish tartibi;
- investitsiya faoliyati va uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish vositalari;
- O'zbekistonda investitsiya faoliyatini - tashkil etishning huquqiy asoslari.

Magistrantlar mazkur o'quv fanidan yuqorida ta'kidlab o'tilgan mavzular bo'yicha aniq tasavvurga ega bilishlarini, bilishi, amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishlari kerak. Shuningdek, ular zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham o'zlashtirishlari lozim.

O'qitish jarayonida nazariya bilan amaliyot birligini, magistrantlarning ilim va ilmga bo'lgan qiziqishini ta'minlovchi usullarni qo'llagan holda ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish zarur.

«Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fani bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar magistrantlarning kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doyr adabiyotlarni o'rganib o'z malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

## **Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar**

O'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan magistrant tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi.

### **Mashg'ulotlar hajmi bo'yicha tavsiyalar**

Fanga jami 60, shu jumladan 20-ma'ruza, 20-amaliy va 20-mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha magistrantlarning mustaqil o'rganishi uchun alohida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashda turli nazorat usullari qo'llaniladi.

### **Talabalar o'zlashtirishini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig'ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fan o'qitiladigan har bir semestrda ikki marotaba joriy baholash, oraliq baholash va bir marotaba yakuniy baholash («yozma ish» usulida) amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida amalga oshirilishi mumkin. Oxirgi semestrda esa, yakuniy baholash faqat «yozma ish» usulida amalga oshiriladi.

### **Zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

Quyidagilar «Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanini o'qitish kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quv maqsadlari va vazifalari katalogini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd va kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- rejalashtirilgan maqsadlarning bajarilishini baholash.

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- magistrantlarga olgan bilimlarini o'zlari baholashlari uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarning bilimini tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlar bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish va h.k.

Bu fanni o'qitishda investitsiya sohasiga doir qonushgar, hukumat qarorlari, davlat investitsiya dasturlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar va yo'riqnomalar, nizomlar va investitsiya loyihalarini baholashning YuNIDO uslubiyoti va kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

### **Ishchi dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

Mazkur fan "Davlat investitsiyalari", «Davlat moliyasini boshqarish» mutaxassisliklariga birinchi va ikkinchi semestrlarda o'qitilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda investitsiya faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, investitsiya dasturlari, nizomlar va kompyuter dasturlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

«Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'tiladi. Magistrantlarning ta'lim jarayonida olgan bilimlari hay'at a'zolari tomonidan reyting tizimi asosida baholanadi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari**

Fanning predmeti va mazmuni. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining mohiyati va asosiy yo'nalishlari

«Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanining predmeti va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati. O'zbekiston investitsiya siyosatining maqsadi. *O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining asosiy yunalishi.*

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarish va muvofiqlashtirish

Investitsiya faoliyati va uni amalga oshirish bosqichlari. Investitsiya faoliyatining ob'ektlari va sub'ektlari. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va *boshqarish.*

### **Davlat investitsiya dasturini shakllantirish**

Davlat investitsiya dasturining mohiyati va matssadi. Davlat investitsiya dasturini tayyorlash jarayoni. Davlat investitsiya dasturiga investitsiya loyihalarini kiritish tartibi va ularni moliyalashtirish. Byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda hisobga olinadigan xarajatlar. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari. Investitsiya dasturini byudjetdan moliyalashtirish va bunda xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni. *Investitsiya loyiualarning adres dasturlari.*

Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan kapital qurilish ob'ektlarini moliyalashtirish va kreditlash

Kapital qurilishning mazmuni va mohiyati. *Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan kapital qurilishni byudjet mablaglari evaziga moliyalashtirish.* Davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlashni rasmiylashtirish uchun buyurtmachilarni mablag' bilan ta'minlovchi banklarga tavsdim etiladigan hujjatlar. Dasturga kiritilgan kapital qurilish loyihalarini mahalliy va chet el banklari mablag'lari evaziga kreditlash.

### **Davlat investitsiya dasturini amalistga tatbiq etish**

Davlat investitsiya dasturini amalga oshirish bosqichlari. Investitsiya dasturini amalga oshirishning huquqiy asoslari. *Investitsiya dasturini amalga oshirishning nazoratini tashkil tsiligi.*

### **3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI**

O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining mohiyati va asosiy yo'nalishlari  
O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati. O'zbekistonda investitsiya siyosatining maqsadi. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish

Investitsiya faoliyatini to'g'risida tushuncha. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish bosqichlari. Investitsiya faoliyatining ob'ektlari va sub'ektlari. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish.

#### **Davlat investitsiya dasturini shakllantirish**

Davlat investitsiya dasturining mohiyati, mazmuni va maqsadi.

Davlat investitsiya dasturini tayyorlash jarayoni. Ustuvor va tanlash jarayonining tuzilishi. Davlat investitsiya dasturiga investitsiya loyihalarini kiritish tartibi va ularni moliyalashtirish. Byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda hisobga olinadigan xarajatlar. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari. Investitsiya dasturini byudjetdan moliyalashtirish va bunda xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni. Investitsiya loyihalarning adres dasturlari.

Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan kapital qurilish ob'ektlarini moliyalashtirish va kreditlash

Kapital qurilishning mazmuni va mohiyati. Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan kapital qurilishni byudjet mablag'lari evaziga moliyalashtirish. Davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlashni rasmiylashtirish uchun buyurtmachilarni mablag bilan ta'minlovchi banklarga taqdim etiladigan hujjatlar. Dasturga kiritilgan kapital qurilish loyihalarini mahalliy va chet el banklari mablag'lari evaziga kreditlash.

#### **Davlat investitsiya dasturini amaliyotga tatbiq etish**

Davlat investitsiya dasturini amalga oshirish bosqichlari. Investitsiya dasturini amalga oshirishning xuquqiy asoslari. Investitsiya dasturini amalga oshirishning nazoratini tashkil qilish.

### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

Barcha mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slydlar va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

«Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanini o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida vazirlik va idoralarning investitsiya dasturini tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etgan takliflari hamda ularni o'rganish bo'yicha amaliy materiallar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlarga «Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanini o'rganishda turli axborot vositalaridan, shu jumladan Internet tizimidagi quyidagi sayt va elektron pochталardan foydalanish tavsiya etiladi:

<http://www.calvertfoundation.org/>

<http://www.optionetics.com/>

<http://www.eagleinvsys.com/>

<http://farmbill.farmbill.unl.edu/>

<http://www.ici.org/>

<http://www.aimr.org/>

<http://www.nasbic.org>

<http://www.Apexvc.com>  
<http://www.wisebuy.co.uk/>  
<http://subscribe.ru>  
<http://www.bimk.kiev.ua>  
<http://tininfo.bigural.ru>  
<http://www.bashkortostan.ru>  
<http://vuirute.iessl.ru>  
<http://tutby>  
<http://www.zelenograd2001.na.rod.ru>  
<http://econsultant.ru>  
<http://megapolis.kharkov.ua>  
<http://www.rada.kiev.ua>  
<http://alyona.nhs.ru>  
<http://www.hse.ru>  
<http://www.samara.ru>  
<http://www.vestona.ru>  
<http://www.officemart.ru>  
<http://www.chtivo.ru>  
<http://bdg.press.net.by>

Shuningdek, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Molil vazirligi, Markaziy bank, xorijiy investitsiyalar bo'yicha Agentlik,

Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralarning amaliy materiallaridan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimediya ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

## **5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI**

Magistrantlarning o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlarda amalga oshiriladi: joriy, oraliq va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turlariga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foizi miqdorida belgilangan «Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish» fanidan magistrant to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 40 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 14, oraliq baholashga 14, yakuniy baholashga esa 12 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida qo'yiladi:

magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;  
amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;  
dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi ;  
mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;  
fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbqiq etish bo'yicha namuiaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi:

86 - 100 foizgacha (34,4 balldan 40 ballgacha) "a'lo";  
71 - 85 foizgacha (28,4 balldan 34,3 ballgacha) "yaxshi";  
55 - 70 foizgacha (22 balldan 28,3 ballgacha) "qoniqarli";  
55 foizdan kam (0 dan 22,9 ballgacha) "qoniqarsiz".

## **6. ADABIYO TLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekistan Respublikasining «Chet el investitsiyal.to'g'risida» gi Qonuni 1998Y. 30 aprel. //Xalq so'zi, 1999Y. 12 yanvar.
2. O'zbekistan Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» gi Qonun. 1998Y. 30 aprel. //Soliq va bojxona xabarlari, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekistan, 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. 2001 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va iqtisodiy islohotlarni baholash hamda 2003 yilda chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2003 yil 18 fevral.
6. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O merax po sovershenstvovaniyu mexanizma realizatsii proektov s inostrannimi investitsiyami» ot 9 fevralya 1998 goda. Finansovoe zakonodatelstvo Respubliki O'zbekistan. №3, 1998.
7. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O chastichnom izmenenii Ukaza ot 30 noyabrya 1996 goda «O dopolnitelnix stimulax i lgotax, predostavlyaemix predpriyatiyam s inostrannimiinvestitsiyami». 27 marta 1998 goda. //Nalogovie i tamojennie vesti, №14, 1998.
8. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. — T.: Moliya, 2000.
9. Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya. 2002.
10. Angelidi M. S. Karimov N. G. Analiz investitsionnix proektov: Uchebnoe posobie. - T.: TMI 2000. - 88 s.
11. Abryutina M.S., Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiy: Uchebno-prakticheskoe posobie. - 3-e izd., pererab. i dop. — M.: Delo i Servis, 2001.
12. Berens V, Xavranek P.M. Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy. Per s angl. pererab. i dopoln. - M.: INFRA -M, 1995.
13. Biznes-plan investitsionnogo proekta: Otechestvenniy i zarubejniy opit. Sovr emennaya praktika i dokumentatsiya: Uchebnoe losobie. - M.: Finansi i statistika, 1997.
14. Bankovskoe delo i finansirovanie investitsiy. Tom 1, tom 2. Pod red. N. Bruka (Vsemirniy Bank Rekonstruktsii i Razvitiya), (v chetirex chastyax). Institut Ekonomicheskogo razvitiya Vsemirnogo Banka, 1995. Lipsits I. V., Kossov V. V. Investitsionniy proekt: metodi podgotovki i analiza. - M.: BEK, 1996. Finansoviy analiz: Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1996.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Boguslavskiy M.M. Inostrannie investitsii: pravovoe regulirovanie. - M.: BEK, 1996.
2. Biznes-plan investitsionnogo proekta: otchestvenniy i zarubejniy opit. Sovremennaya praktika i dokumentatsiya: Ucheb. posobie. - M.: Finansi i statistika, 1997.
3. Gitman L. Dj, Djonk M.D. Osnovi investirovaniya. Per. s angl, - M.: Delo, 1997.
4. Upravlenie investitsionnim proektom. Opit IBM. Per s angl. -M.: INFRA - M, 1995.
5. Konkurentsia i upravlenie riskami na predpriyatiyax v usloviyax rinka. - M.: Alane, 1997.
6. Kovalev V.V. Metodi otsenki investitsionnix proektov - M.: Finansi i statistika, 1998.
7. Kurs ekonomiki: Uchebnik/ Pod red. B.A. Rayzberga. - M.:INFRA - M, 1997.